

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI AMALIY MASHG'ULOTLARDA TASHKIL QILISH JARAYONI VA O'QITUVCHI FAOLIYATINING AHAMIYATI

Mamadaliyeva E'tibor Shuhratovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrası

E-mail: etibormamadaliyeva6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15271965>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlarda tashkil qilish jarayonini va o'qituvchi faoliyatining ahamiyatini o'rganadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi, shuningdek, talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'qituvchilar esa, ushbu texnologiyalarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish va ularni motivatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi faoliyati, amaliy mashg'ulotlar, integratsiya usullari, o'zaro aloqa, ta'lim sifati, pedagogik innovatsiyalar, o'quvchi muvaffaqiyati

THE PROCESS OF ORGANIZING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES AND THE IMPORTANCE OF TEACHER ACTIVITY

Abstract: This article explores the process of organizing modern pedagogical technologies in practical classes and the importance of teacher activities. Modern pedagogical technologies enhance the educational process, making it more effective and interactive, while ensuring students' active participation. Teachers play a crucial role in managing the learning process and motivating students by properly applying these technologies.

Keywords: modern pedagogical technologies, teacher activities, practical classes, integration methods, interaction, education quality, pedagogical innovations, student success

ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ И ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс организации современных педагогических технологий на практических занятиях и значимость деятельности учителя. Современные педагогические технологии делают образовательный процесс более эффективным и интерактивным, обеспечивая активное участие студентов. Учителя играют ключевую роль в управлении учебным процессом и мотивации студентов, правильно применяя эти технологии.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, деятельность учителя, практические занятия, методы интеграции, взаимодействие, качество образования, педагогические инновации, успех студентов

KIRISH

Shu bugungi kungacha an'anaviy ta'limda yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul yoshlarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq. Endilikda fan,

texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlari bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab safdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida barcha talaba markaziy ishtirokchiga aylanadi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi talabalarining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi (6). Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxs tabiatidan kelib chiqqan holda shaxsiy tarkibni kim tarbiyalayotganligi hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlari kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar talabaning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir(8). Interfaol ("Inter" - bu o'zaro, "ast" - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi. Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, yoshlarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslublari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi(10). O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu aniq, ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, yoshlarning ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishilishi uchun hamkorlikdagi faoliyat, qo'yilgan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq(5). Texnologiya - ishlab chiqarish jarayoni, pedagogik texnologiya esa - yaxlit pedagogik jarayondir. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari: loyihalashtirish, amalga oshirish, kafolatli natija. Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati - kafolatlangan natijaga yo'nalganligi. Har bir texnologiya, shu jumladan, pedagogik texnologiya ham o'zining mezonlariga ega: konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik, qayta tiklanuvchanlik. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida umumpedagogik, xususiy metodik, modulli yo'nalishlarda qo'llash darajalari aniqlangan(4). Har qanday texnologiya biron bir g'oyani, ilmiy fikr yoki nazariyani hayotga tatbiq etib, uni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ishlash jarayonida maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlanishi ishlarni olib borayotganlar ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya shaxsiy tarkibning bilim saviyasi, guruh tabiati, va sharoitga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material,

chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi ushbu ishlarni tashkil etuvchi pedagogga bog'liq. Shu bilan birga mazkur jarayonni oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda tashkillashtiruvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina zarur kafolatlangan natijaga erishish mumkin(2).

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- "pedagogik talab" tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarining namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);
- pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, "ratsional axborot berish" tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;
- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar va obrazlar;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigiyenik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;
- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.

3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlar asosida qo'llanilishi: Axborot texnologiyalarining qo'llanilishi inson fiziologiyasiga asoslangan bo'lib, G. Mayer fikriga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilingandan so'ng tinglovchi xotirasida 10%, ko'rish orqali (ko'rganda) 20%, ko'rish va eshitish orqali (ko'rganda va eshitganda) 50%, ko'rib, eshitish orqali qabul qilish va munozarada 70%, ko'rish, eshitish, munozara va amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda 90% axborot qoladi. Bundan tashqari, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarining tadbiiq etilishi talabalarda fanga qiziqishni orttirib, ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi, yoshlarni har tomonlama, umumiy rivojlanishiga ko'mak berib, o'qituvchining vaqtini tejaydi. Aniqrog'i ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari (interfaol uyinlar, innovatsion texnologiyalar) qo'llashning ustivor jihatlari qo'yidagilardan iborat:

1. Eng qulay va sodda usul.
2. Ko'p tarmoqli.
4. Esda qolishi kuchli.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutiladi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabat paydo bo'ladi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.
15. O'z shaxsiy fikrini bayon qilish va uni himoya qilishga o'rgatadi(9).

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. O'qituvchi tomonidan tibbiy bilimlarni ta'lim texnologiyalarini bir necha turi bilan berilishi talabalar tomonidan mashg'ulotlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Xozirgi kunda talabalarga bilim berishda va ularning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va qobiliyatlarini baholashda ilg'or ta'lim texnologiyalarini tanlash har bir kafedraning xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim. Bu o'rinda talabalar fikrini o'rganish va ular asosida ishchi dasturlarni takomillashirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Pediatriya

yo‘nalishdagi kafedralarda an‘anaviy tarzda amaliy ko‘nikmalar ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki, yozma tarzda, bemorlar kuratsiyasi, mulyaj, manekenlar vositasida va navbatchilik hisobotlari shaklida nazorat qilinadi. Ammo, hamma vaqt ham ushbu usullar tibbiyotning asosiy sohasi bo‘lgan pediatriya yo‘nalishida talabalarga amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishda va ular tomonidan bajarilishini nazorat qilishda ijobiy natija bermaydi. Bu esa mashg‘ulotlar davomida talabalarning ham fikrini o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi. Tibbiy biologiya fani buyicha zamonaviy talablarga javob beruvchi va yosh mutaxassislarining taxsil olish samaradorligini ta‘minlovchi xamda ta‘lim olayotganlarga muljallangan va ularning bu jarayonda faol ishtirokiga ega bulish maksadida interaktiv usullar o‘kitishning barcha turlarida tadbik etish rejalashtirilgan. Bu usullar o‘kish jarayonini jadallashuvini ta‘minlashning muxim tarkibiyismi xisoblanadi.

XULOSA

Fanni o‘kitishda ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu interfaol o‘kitish metodlarini tadbik etish(1). Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida ko‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormokda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni, 2020-yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022-yildagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020-yildagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”
4. Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida», 16.06.2022 PQ-279-son.
5. Alyaviya O.T., va boshq. Fiziologiya. T., 2022-y.
6. Brin Vadim Borisovich, Mazing Yuriy Andreevich, Zaxarov Yuriy Mixaylovich, Redaktor: Tkachenko Boris Ivanovich, Izdatelstvo: GEOTAR-Media, 2018.
7. K Sembulingam PhD va Prema Sembulingam, Essentials of Medical Physiology, Jaypee Brothers, Medical Publishers (P) Ltd, 2012-y.
8. Lauralee Sherwood, Fundamentals of Human Physiology, 4 E., USA.
9. Sudakov K.V., Andrianov V.V., Vagin Yu.E. Fiziologiya cheloveka. Atlas dinamicheskix sxem. 2-e izdaniye. Iz –vo: GEOTAR-Media, 2020.